

Date: 1st June-2026

**TALABANING BADIY ADABIYOT MUTOLAASI ORQALI MA'NAVIY
DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH (10 TA ASAR MISOLIDA)**

Qahramonova Nilufar Adxamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 206-guruh talabasi Qahramonova Nilufar Adxamjon qizi tomonidan mutolaa qilingan 10 ta badiiy asarning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati hamda ularning talaba ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri yoritilgan. Asarlar orqali insoniy fazilatlar — mehr-oqibat, sadoqat, adolat, sabr, vatanparvarlik va orzuga intilish kabi qadriyatlar shakllanishi tahlil qilingan. Maqola badiiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Badiiy adabiyot, mutolaa, ma'naviyat, insoniylik, tarbiya, O'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, talaba, qadriyat, dunyoqarash

Badiiy adabiyot inson ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi, chunki kitob mutolaasi orqali yoshlar hayotni chuqur anglaydi, to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadi hamda o'z dunyoqarashini kengaytiradi; badiiy asarlar inson qalbini tarbiyalab, unda ezgulik, mehr-oqibat, adolat, sabr va vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantiradi, shuningdek, kitob o'qish insonni fikrlashga, tahlil qilishga va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlashga yo'naltiradi, ayniqsa yosh avlod uchun badiiy adabiyot nafaqat bilim manbai, balki muhim ma'naviy tarbiya vositasi hisoblanadi; ushbu maqolada 10 ta badiiy asar misolida talabaning kitobxonlik faoliyati va uning ma'naviy rivojlanishiga ta'siri yoritilib, mazkur asarlar orqali dunyoqarashning kengayishi hamda insoniy qadriyatlarning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi.

Mutolaa qilingan asarlar orasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" hamda "Ikki eshik orasi", G'afur G'ulomning "Shum bola", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari, shuningdek jahon adabiyotining mashhur namunalari - "Kichkina shahzoda", "Alkimyogar", "Robinson Kruzo" va "Tom Soyerning sarguzashtlari" mavjud bo'lib, har biri o'zining g'oyaviy-badiiy jihati bilan inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi. Jumladan, "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarida muhabbat, sadoqat, adolat va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar chuqur yoritilib, o'quvchiga tarixiy va ma'naviy saboqlar beradi. "Dunyoning ishlari" va "Ikki eshik orasi" asarlarida esa ona mehri, oilaviy qadriyatlar, urush va hayot sinovlari orqali insonning sabr-bardoshi va vatanparvarlik tuyg'ulari aks ettiriladi.

Shuningdek, "Shum bola" va "Sariq devni minib" asarlari bolalik dunyosi, sho'xlik, orzu va fantaziya orqali hayotga yengil va ibratli qarashni shakllantiradi. Jahon adabiyotiga mansub "Kichkina shahzoda" asarida do'stlik, samimiyat va hayotning asl qadri falsafiy tarzda yoritilsa, "Alkimyogar"da insonning orzulari sari intilishi va o'z yo'lini topishi



Date: 1st June-2026

asosiy g'oya sifatida beriladi. "Robinzon Kruzo" esa sabr, mehnat va mustaqil yashash qobiliyatini namoyon etsa, "Tom Soyerning sarguzashtlari" bolalikdagi erkinlik, do'stlik va qiziqarli sarguzashtlar orqali hayotiy tajriba beradi.

Ushbu asarlar umuman olganda muhabbat va sadoqat, orzu va maqsad, sabr va matonat, adolat va haqiqat, do'stlik va insoniylik kabi muhim tushunchalarni yoritib, har bir o'quvchiga hayotiy saboq beradi hamda ularni ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Quyida ushbu 10 ta badiiy asarning falsafasi, qisqacha mazmuni, asosiy qahramonlari, voqealardagi yorqin lahzalari, shuningdek, ularni mutolaa qilish jarayonida o'zida shakllangan fikr va xulosalar, yoqtirgan jihatlarim hamda tengdoshlarimga beradigan tavsiyalarim keng va batafsil yoritib beriladi. Ushbu yondashuv har bir asarning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini chuqurroq anglash, ularning inson hayotidagi o'rnini tahlil qilish hamda kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari o'zbek adabiyotining eng yirik va muhim romanlaridan biri bo'lib, unda Otabek va Kumushning sof muhabbati, ularning baxtiga to'siq bo'lgan eski urf-odatlar, rashk va hasad oqibatida yuzaga kelgan fojeali voqealar tasvirlangan. Asarning asosiy g'oyasi muhabbat, sadoqat, milliy qadriyatlar hamda eski va yangi jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritishdan iborat bo'lib, Otabek, Kumush, Zaynab va Yusufbek hoji kabi qahramonlar orqali insoniy fazilatlar va ijtimoiy muammolar chuqur ochib berilgan. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Otabek va Kumushning sof muhabbati hamda hayotiy sinovlarga bardosh berishidir, shuningdek, asardagi fojeali voqealar insonni chuqur o'ylashga undaydi. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni albatta mutolaa qilishsin, chunki u insonni sabrli bo'lishga, muhabbatni qadrlashga va hayotiy xatolardan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.

2. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari o'zbek adabiyotining muhim romanlaridan biri bo'lib, unda Anvar va Ra'no o'rtasidagi sof muhabbat, jamiyatdagi adolatsizliklar hamda turli qarama-qarshiliklar orqali inson taqdiri va hayot sinovlari yoritilgan. Asarning asosiy g'oyasi adolat, haqiqat va insoniy qadriyatlarni himoya qilish bo'lib, Anvar, Ra'no va Abdurahmon domla kabi qahramonlar orqali ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash ifodalanadi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Anvarning adolat yo'lidagi qat'iyligi va Ra'noning sadoqati bo'lib, asardagi voqealar insonni chuqur mulohazaga undaydi. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni adolatli bo'lishga, haqiqatni qadrlashga va hayotda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

3. G'afur G'ulomning "Shum bola" asari o'zbek adabiyotining eng qiziqarli va ibratli asarlaridan biri bo'lib, unda sho'x, topqir va hayotga kulgi bilan qaraydigan bolaning boshidan o'tgan sarguzashtlar kulgili va ibratli voqealar orqali tasvirlangan. Asarning asosiy g'oyasi hayotdagi qiyinchiliklarga qaramay quvnoq kayfiyatni saqlash, insoniylik va hayot tajribasini shakllantirishdan iborat bo'lib, Shum bola va uning atrofidagi qahramonlar orqali turli kulgili va hayotiy vaziyatlar yoritiladi. Asarda meni eng ko'p yoqtirgan jihat Shum bolaning topqirligi va har qanday vaziyatdan chiqib keta olishi



Date: 1st June-2026

bo'lib, voqealar juda samimiy va qiziqarli tarzda berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni hayotni yengilroq qabul qilishga, aql bilan harakat qilishga va qiyinchiliklardan to'g'ri yo'l topishga o'rgatadi.

4. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari o'zbek bolalar adabiyotining eng qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlaridan biri bo'lib, unda Hoshimjon ismli sho'x, orzulari katta va tasavvuri boy bolaning g'aroyib sarguzashtlari fantastik va kulgili voqealar orqali tasvirlangan. Asarning asosiy g'oyasi orzu qilish, mehnat qilish va to'g'ri yo'ldan borish orqali inson o'z maqsadiga erishishi mumkinligini ko'rsatishdan iborat bo'lib, Hoshimjon va uning atrofidagi qahramonlar orqali turli hayotiy va ibratli vaziyatlar yoritiladi. Asarda meni eng ko'p yoqtirgan jihat Hoshimjonning fantaziyasi, topqirligi va qiziqarli sarguzashtlari bo'lib, voqealar juda jonli va kulgili tarzda berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni orzu qilishga, mehnatsevar bo'lishga va hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

5. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari o'zbek adabiyotining eng ta'sirchan va ibratli asarlaridan biri bo'lib, unda ona mehri, insoniylik, oilaviy qadriyatlar hamda hayotning turli sinovlari oddiy va samimiy hikoyalar orqali yoritilgan. Asarning asosiy g'oyasi inson hayotida mehr-oqibat, sabr va onaga bo'lgan hurmatning eng yuksak qadriyat ekanini ko'rsatishdan iborat bo'lib, ona, farzandlar va oddiy hayotiy obrazlar orqali turli hayotiy vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat ona mehrining beqiyosligi va inson qalbiga yaqin samimiy voqealar bo'lib, har bir hikoya chuqur o'ylashga undaydi. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni onani qadrlashga, mehrlil bo'lishga va hayotiy qadriyatlarni anglashga o'rgatadi.

6. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari o'zbek adabiyotining eng chuqur mazmunli va ta'sirchan romanlaridan biri bo'lib, unda urush va tinchlik davridagi insonlar taqdiri, oilaviy munosabatlar, hayot sinovlari hamda turli ijtimoiy muammolar real hayotiy voqealar orqali yoritilgan. Asarning asosiy g'oyasi inson sabri, vatanparvarlik, mehr-oqibat va hayot sinovlarida to'g'ri yo'l tanlash muhimligini ko'rsatishdan iborat bo'lib, Orif oqsoqol, Robiya, Kimsan kabi qahramonlar orqali turli murakkab vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat urushning inson taqdiriga ta'siri va oilalarning og'ir sinovlarga qaramay bir-biriga sadoqati bo'lib, voqealar juda hayotiy va chuqur ma'no bilan berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni sabrli bo'lishga, hayotni qadrlashga va vatan hamda oilaning qadriga yetishga o'rgatadi.

7. Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari jahon adabiyotining eng mashhur va falsafiy mazmunga ega bo'lgan asarlaridan biri bo'lib, unda Kichkina shahzodaning turli sayyoralarga sayohati orqali insoniy munosabatlar, do'stlik, mehr-oqibat va hayotning asl qadri chuqur ma'noda yoritilgan. Asarning asosiy g'oyasi inson qalbi bilan ko'rish, chin do'stlik va samimiyatni qadrlash zarurligini ko'rsatishdan iborat bo'lib, Kichkina shahzoda, Uchuvchi va Tulki kabi qahramonlar orqali hayotiy va



Date: 1st June-2026

falsafiy vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Tulkining do'stlik haqidagi o'g'itlari va Kichkina shahzodaning beg'ubor qarashlari bo'lib, har bir voqea chuqur ma'no va hissiyot bilan berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni samimiy bo'lishga, haqiqiy do'stlikni qadrlashga va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga o'rgatadi.

8. Paulo Koeloning "Alkimyogar" asari jahon adabiyotining mashhur falsafiy romanlaridan biri bo'lib, unda Santyago ismli yosh cho'ponning o'z "shaxsiy afsonasi"ni izlab qilgan sayohati orqali orzular, maqsad sari intilish, sabr va ishonch kabi hayotiy qadriyatlar chuqur mazmunda yoritilgan. Asarning asosiy g'oyasi inson o'z orzusiga sodiq qolsa va harakat qilsa, albatta maqsadiga erishishini ko'rsatishdan iborat bo'lib, Santyago, Alkimyogar va Fotima kabi qahramonlar orqali turli hayotiy va falsafiy vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Santyagoning orzusi yo'lida hech narsadan qo'rqmasdan harakat qilishi hamda hayotiy saboqlarni o'z yo'lida o'rganishi bo'lib, voqealar juda chuqur ma'no va ilhom bilan berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni orzulariga ishonishga, maqsad sari qat'iyat bilan intilishga va hayotda o'z yo'lini topishga o'rgatadi.

9. Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" asari jahon adabiyotining sarguzasht janridagi eng mashhur romanlaridan biri bo'lib, unda Robinzon Kruzo ismli qahramonning kema halokatidan so'ng kimsasiz orolda yolg'iz yashab qolishi, tabiat bilan kurashishi va asta-sekin o'z hayotini qayta qurishi haqidagi voqealar tasvirlangan. Asarning asosiy g'oyasi inson sabri, mehnatsevarligi, aql-zakovati va qiyin sharoitda ham yashash uchun kurashish qobiliyatini ko'rsatishdan iborat bo'lib, Robinzon Kruzo va Juma kabi qahramonlar orqali turli hayotiy va sinovli vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Robinzonning yolg'izlikda ham umidsizlanmasdan hayotini davom ettirishi va har bir muammoni aql bilan hal qilishi bo'lib, voqealar juda qiziqarli va ibratli tarzda berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni sabrli bo'lishga, mustaqil fikrlashga va qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topishga o'rgatadi.

10. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asari jahon adabiyotining eng qiziqarli sarguzasht romanlaridan biri bo'lib, unda Tom Soyer ismli sho'x va jasur bolaning bolalikdagi turli sarguzashtlari, do'stligi, maktab hayoti hamda turli kulgili va hayajonli voqealar tasvirlangan. Asarning asosiy g'oyasi bolalik beg'uborligi, erkinlikka intilish, do'stlik va hayotiy tajriba orqali to'g'ri yo'lni topishni ko'rsatishdan iborat bo'lib, Tom Soyer, Geklberri Finn va Beki kabi qahramonlar orqali turli qiziqarli vaziyatlar ochib beriladi. Asarda meni eng ko'p ta'sirlantirgan jihat Tomning jasorati, topqirligi va har bir vaziyatni o'yinga aylantira olishi bo'lib, voqealar juda jonli va kulgili tarzda berilgan. Tengdoshlarimga tavsiyam shuki, ushbu asarni mutolaa qilishsin, chunki u insonni hayotni sevishtga, do'stlikni qadrlashga va qiyinchiliklardan qo'rqmasdan harakat qilishga o'rgatadi.

Ushbu mutolaa qilingan 10 ta badiiy asar mazmunan boyligi, oson o'qilishi va tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ular orqali inson hayotidagi eng muhim



Date: 1st June-2026



qadriyatlar — mehr-oqibat, sadoqat, sabr, adolat, vatanparvarlik va orzuga ishonch kabi tushunchalar yanada chuqurroq anglab yetiladi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari Abdulla Qodiriy va O‘tkir Hoshimov asarlaridan tortib, jahon adabiyotining mashhur ijodkorlari asarlarigacha bo‘lgan ushbu kitoblar insonning ma’naviy dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda hayotiy tajribani boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu asarlar nafaqat badiiy zavq beruvchi kitoblar, balki har bir o‘quvchini hayotni to‘g‘ri anglashga, to‘g‘ri qaror qabul qilishga va insoniy fazilatlarini qadrlashga o‘rgatadigan muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Shu sababli bu kitoblarni o‘qish har bir yosh avlod uchun foydali bo‘lib, ularni barkamol shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi hamda mutolaa qilingan ushbu 10 ta badiiy asar talabaning ma’naviy dunyoqarashini boyitgan, uning fikrlash qobiliyatini rivojlantirgan hamda hayotga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirgan. Badiiy adabiyot yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy – “O‘tkan kunlar”
2. Abdulla Qodiriy – “Mehrobdan chayon”
3. O‘tkir Hoshimov – “Dunyoning ishlari”
4. O‘tkir Hoshimov – “Ikki eshik orasi”
5. G‘afur G‘ulom – “Shum bola”
6. Xudoyberdi To‘xtaboyev – “Sariq devni minib”
7. Antuan de Sent-Ekzyuperi – “Kichkina shahzoda”
8. Paulo Koelo – “Alkimyogar”
9. Daniel Defo – “Robinzon Kruzo”
10. Mark Tven – “Tom Soyerning sarguzashtlari”